



LEGAL PROTECTION MECHANISMS FOR THE SAXAUL PLANT IN THE SOUTHERN ARAL SEA REGION

Berdakh Jienbaev

Doctoral student at Berdaq Karakalpak State University

Email: berdakh.jienbaev@bk.ru

Nukus, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: saxaul, Southern Aral Sea region, environmental protection, legal regulation, desertification, natural resources, public policy.

Received: 13.05.26

Accepted: 14.05.26

Published: 15.05.26

Abstract: This article examines the legal protection mechanisms of the saxaul plant in the Southern Aral Sea region. The study explores the ecological significance of saxaul, its role in preventing desertification, and the existing legal frameworks aimed at its conservation. Special attention is given to state regulatory measures, control mechanisms, and their effectiveness. Based on identified challenges, recommendations are proposed to improve the legal protection system.

SAKSOVUL O'SIMLIGINI JANUBIY OROLBO'YIDA HUQUQIY HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

Berdax Jienbaev

Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti

berdakh.jienbaev@bk.ru

Nukus, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: saksovul, Janubiy Orolbo'yi, ekologik muhofaza, huquqiy tartibga solish, cho'llanish, tabiiy resurslar, davlat siyosati.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Janubiy Orolbo'yi hududida keng tarqalgan saksovul o'simligini huquqiy muhofaza qilishning amaldagi mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda saksovulning ekologik ahamiyati, cho'llanish jarayonlarini oldini olishdagi roli hamda uni asrashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar o'rganiladi. Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tartibga solish choralari, nazorat mexanizmlari va ularning

samaradorligi baholanadi. Muammolarni aniqlash asosida huquqiy muhofaza tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

МЕХАНИЗМЫ ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ РАСТЕНИЯ САКСАУЛ В ЮЖНОМ ПРИАРАЛЬЕ

Бердах Жиенбаев

Докторант Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

Электронная почта: berdakh.jienbaev@bk.ru

Нукус, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: саксаул, Южное Приаралье, экологическая защита, правовое регулирование, опустынивание, природные ресурсы, государственная политика.

Аннотация: В данной статье анализируются механизмы правовой охраны растения саксаул в Южном Приаралье. Рассматриваются экологическая значимость саксаула, его роль в предотвращении процессов опустынивания, а также действующие нормативно-правовые акты, направленные на его защиту. Особое внимание уделяется государственным мерам регулирования, контрольным механизмам и оценке их эффективности. На основе выявленных проблем предлагаются рекомендации по совершенствованию системы правовой охраны.

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda global miqyosda ekologik muammolarning keskinlashuvi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ularni huquqiy jihatdan muhofaza qilish masalasini dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylantirdi. Ayniqsa, cho'llanish, tuproq degradatsiyasi va bioxilma-xillikning qisqarishi kabi jarayonlar Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan, Janubiy Orolbo'yi hududida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik inqiroz hududning tabiiy landshaftini tubdan o'zgartirib, yangi cho'l hududlarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Mazkur sharoitda o'simlik qoplami, ayniqsa, cho'l ekotizimiga moslashgan saksovul kabi turlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Saksovul (*Haloxylon* spp.) nafaqat cho'l hududlarining asosiy o'simlik komponentlaridan biri, balki ekologik barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. U qum ko'chishini cheklash, shamol eroziyasining oldini olish, tuproq unumdorligini ma'lum darajada saqlab qolish hamda mahalliy fauna uchun yashash muhiti yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga,

saksovulning kesilishi va noqonuniy foydalanilishi hududda ekologik muvozanatning yanada buzilishiga olib kelmoqda. Bu esa ushbu o'simlikni nafaqat ekologik, balki huquqiy jihatdan ham himoya qilish zaruratini kuchaytiradi. Janubiy Orolbo'yi hududida saksovul o'simligini muhofaza qilish masalasi ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar doirasida tartibga solinadi. Xususan, tabiiy resurslardan foydalanish, o'rmon fondi yerlarini muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qonunlar va qarorlar ushbu jarayonda muhim o'rin tutadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, mavjud huquqiy mexanizmlarning barchasi ham yetarli darajada samarali ishlamayapti. Nazorat tizimining yetarli darajada tashkil etilmaganligi, noqonuniy kesish holatlarining davom etishi hamda aholi o'rtasida ekologik ongning pastligi kabi omillar muammoning murakkablashishiga olib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, saksovulni huquqiy muhofaza qilish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, ularning amaldagi holatini baholash va takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, Janubiy Orolbo'yi hududida saksovul o'simligini muhofaza qilishning huquqiy asoslari va mexanizmlarini kompleks ravishda o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u ekologik xavfsizlikni ta'minlash, cho'llanish jarayonlarini sekinlashtirish va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni yo'lga qo'yish bilan chambarchas bog'liq. Saksovulning saqlanishi hudud iqlimining barqarorlashuvi, chang-to'zonlarning kamayishi va yashash muhitining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shu bois uni muhofaza qilish faqat ekologik emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham muhim vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Janubiy Orolbo'yi hududida saksovul o'simligini huquqiy muhofaza qilish mexanizmlarini tahlil qilish va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: saksovulning ekologik ahamiyatini ochib berish; uni muhofaza qilishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani o'rganish; amaldagi boshqaruv va nazorat mexanizmlarini tahlil qilish; mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Tadqiqotda tizimli yondashuv, tahliliy va qiyosiy usullar qo'llanildi. Huquqiy hujjatlar, ilmiy manbalar hamda amaliy ma'lumotlar asosida saksovulni muhofaza qilishning mavjud mexanizmlari o'rganildi. Shu bilan birga, hududiy xususiyatlar hisobga olingan holda muammoning o'ziga xos jihatlari ochib berildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mazkur tadqiqot doirasida Janubiy Orolbo'yi hududida saksovul o'simligini huquqiy muhofaza qilish masalasiga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy

hujjatlar hamda amaliy tadqiqotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Mavzu murakkab va ko'p qirrali bo'lgani sababli adabiyotlar ekologiya, o'rmon xo'jaligi, tabiiy resurslar boshqaruvi va ekologik huquq yo'nalishlari kesimida o'rganildi.

Avvalo, Orolbo'yi hududining ekologik holatini yorituvchi fundamental tadqiqotlar alohida e'tiborga loyiqdir. Xususan, Micklin Philip P. tomonidan olib borilgan izlanishlarda Orol dengizi inqirozining sabablari, uning hududiy va global oqibatlari chuqur tahlil qilingan. Muallif Orolbo'yi hududida yangi cho'l landshaftlarining shakllanishi va bu jarayonda o'simlik qoplaminin roli haqida muhim ilmiy xulosalar beradi [1.47]. Ushbu tadqiqotlar saksovul kabi cho'lga moslashgan o'simliklarning ekologik ahamiyatini tushunishda nazariy asos vazifasini bajaradi. Shuningdek, Markaziy Osiyo cho'l ekotizimlarini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda Glantz Michael H. Orolbo'yi hududida yuzaga kelgan ekologik muammolarni ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq holda tahlil qiladi [2.112]. Muallifning fikricha, tabiiy resurslardan noo'rin foydalanish va boshqaruv tizimidagi kamchiliklar ekologik inqirozni chuqurlashtirgan. Bu esa tabiiy resurslarni, jumladan saksovulni muhofaza qilishda samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Jumladan, Raximov O.R. o'z ishlarida O'zbekiston cho'l hududlarida saksovulzorlarning qisqarish dinamikasini tahlil qilib, antropogen omillarning salbiy ta'sirini ko'rsatib beradi [3.45]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, noqonuniy kesish va chorvachilik bosimi saksovul resurslarining kamayishiga asosiy sabab bo'layotgani aniqlangan.

Ekologik huquq sohasida olib borilgan ilmiy ishlarda esa tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy asoslari yoritilgan. Xususan, Xolmo'minov J.T. tomonidan yozilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda ekologik qonunchilik tizimi, uning rivojlanish bosqichlari va amaliy muammolari tahlil etilgan [4.65-82-b]. Muallif ekologik nazorat tizimini takomillashtirish va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari ham tadqiqotning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonuni saksovulzorlarni muhofaza qilishning asosiy huquqiy asoslarini belgilaydi. Ushbu qonunda o'rmon fondi yerlaridan foydalanish tartibi, ularni muhofaza qilish choralari hamda javobgarlik masalalari aniq ko'rsatib o'tilgan [5.10-20-moddalar]. Shu bilan birga, "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun tabiiy resurslarni kompleks himoya qilishga qaratilgan umumiy prinsiplarga asoslanadi [6. 5-10-moddalar]

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy adabiyotlarda saksovul o'simligining ekologik ahamiyati yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, uni huquqiy muhofaza qilish mexanizmlarini kompleks o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Ayniqsa, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda Janubiy Orolbo'yi misolida olib borilgan izlanishlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu bois mazkur maqola mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy usullar majmuasidan foydalanildi. Avvalo, tizimli yondashuv asosida saksovul o'simligini muhofaza qilishga ta'sir etuvchi ekologik va huquqiy omillar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Bu usul muammoni kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Bu esa milliy huquqiy mexanizmlarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga xizmat qildi. Shuningdek, tahliliy usul yordamida ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar mazmunan o'rganilib, ularning asosiy g'oyalari umumlashtirildi.

Statistik ma'lumotlarni o'rganish usuli orqali saksovulzorlarning qisqarish tendensiyalari va ularning hududiy taqsimoti haqida xulosalar chiqarildi. Ushbu ma'lumotlar muammoning real ko'lamini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu bilan birga, induktiv va deduktiv usullar yordamida umumiy nazariy xulosalardan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijada, qo'llanilgan metodlar majmuasi saksovul o'simligini huquqiy muhofaza qilish mexanizmlarini chuqur va har tomonlama o'rganish imkonini berdi hamda tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

Muhokama va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalar Janubiy Orolbo'yi hududida saksovul o'simligini huquqiy muhofaza qilish tizimi yetarli darajada shakllangan bo'lsa-da, uning amaliy samaradorligi bir qator omillar bilan cheklanayotganini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida ekologik va huquqiy mexanizmlar o'rtasidagi uzviylik har doim ham ta'minlanmayotgani aniqlandi.

Birinchiidan, saksovul o'simligining ekologik ahamiyati ilmiy manbalarda keng yoritilganiga qaramay, uning huquqiy maqomi va muhofaza qilish tartiblari amaliyotda yetarlicha qat'iy qo'llanilmayapti. O'rganilgan hududlarda saksovulzorlarning qisqarishi davom etayotgani, ayniqsa, noqonuniy kesish holatlarining saqlanib qolayotganligi aniqlangan. Bu holat mavjud nazorat mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligini ko'rsatadi. Ayrim hollarda hududiy nazorat organlari tomonidan monitoring tizimi muntazam olib borilmaydi, bu esa huquqbuzarliklarning o'z vaqtida aniqlanishiga to'sqinlik qiladi.

Ikkinchidan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, saksovluni muhofaza qilishga qaratilgan qoidalar umumiy ekologik qonunchilik doirasida belgilangan bo'lib, ularning ayrimlari aniq mexanizmlar bilan mustahkamlanmagan. Xususan, ruxsatsiz kesish uchun javobgarlik choralarining mavjudligiga qaramay, ularning amalda qo'llanish darajasi pastligicha qolmoqda. Bu esa huquqiy normalarning ijro etilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, tadqiqot davomida aniqlangan muhim jihatlardan biri – mahalliy aholi o'rtasida ekologik ong va huquqiy madaniyat darajasining yetarli emasligidir. Saksovl ko'pincha yoqilg'i manbai sifatida foydalanilishi sababli uning noqonuniy kesilishi davom etmoqda. Bu esa faqatgina huquqiy choralar bilan emas, balki ijtimoiy-ma'rifiy yondashuvlar orqali ham muammoni hal etish zarurligini anglatadi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish maqsadida quyidagi jadval shakllantirildi:

Muammo turi	Mazmuni	Ekologik va huquqiy oqibatlari
Nazorat tizimining sustligi	Monitoring va tekshiruvlarning yetarli emasligi	Noqonuniy kesishning davom etishi, saksovlzorlar qisqarishi
Huquqiy mexanizmlarning yetarli aniqlashtirilmaganligi	Qonunlarda aniq ijro mexanizmlarining yetishmasligi	Javobgarlik choralarining samaradorligi pastligi
Aholi ekologik ongining pastligi	Saksovuldan yoqilg'i sifatida keng foydalanish	Ekotizimning buzilishi, cho'llanish jarayonining tezlashuvi
Iqtisodiy omillar	Alternativ energiya manbalarining yetishmasligi	Tabiiy resurslarga bosimning ortishi

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahliliy kuzatuvlar asosida shakllantirilib, saksovluni muhofaza qilish tizimidagi muammolarning kompleks xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Muammolar o'zaro bog'liq bo'lib, ularni bartaraf etish ham tizimli yondashuvni talab qiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, saksovluni huquqiy muhofaza qilish samaradorligini oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Avvalo, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish, zamonaviy monitoring texnologiyalarini joriy etish va huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni qat'iylashtirish lozim. Shu bilan birga, mahalliy aholi o'rtasida ekologik madaniyatni oshirish, muqobil energiya manbalarini keng joriy etish orqali saksovlga bo'lgan bosimni kamaytirish

mumkin. Shuningdek, davlat siyosati darajasida saksovolni alohida muhofaza obyekt sifatida ko'rib chiqish, uni tiklash va ko'paytirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu borada hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda kompleks yondashuvni qo'llash talab etiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari saksovol o'simligini huquqiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan ilmiy asoslangan chora-tadbirlar nafaqat ekologik muvozanatni tiklashga, balki hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari Janubiy Orolbo'yi hududida saksovol o'simligini huquqiy muhofaza qilish masalasi ko'p qirrali va tizimli yondashuvni talab etadigan dolzarb muammo ekanligini tasdiqladi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, saksovol cho'l ekotizimining muhim tarkibiy elementi sifatida nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki cho'llanish jarayonlarini sekinlashtirish, tuproq eroziyasini kamaytirish va iqlimiy muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois uni muhofaza qilish masalasi ekologik xavfsizlik bilan bevosita bog'liqdir. Tahlillar asosida aniqlanishicha, O'zbekistonda saksovolni muhofaza qilishga qaratilgan muayyan normativ-huquqiy baza shakllangan bo'lsa-da, uning amaliy samaradorligi yetarli darajada emas. Xususan, mavjud qonunchilikda belgilangan talablarning ijrosi doimiy va tizimli nazorat bilan ta'minlanmayotgani, ayrim hollarda esa huquqiy mexanizmlar yetarli darajada aniq va amaliy yo'naltirilmaganligi kuzatildi. Bu esa huquqiy normalarning real natijadorligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, saksovolzorlarning qisqarishiga olib kelayotgan asosiy sabablar sifatida noqonuniy kesish holatlari, aholining ushbu o'simlikdan yoqilg'i sifatida foydalanishi hamda muqobil energiya manbalarining yetarli emasligi qayd etildi. Bu omillar ekologik muammolar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan ham chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, saksovolni muhofaza qilish masalasini faqat huquqiy choralar bilan hal etish yetarli emas, balki kompleks yondashuv zarur.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun bir qator ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, huquqiy nazorat tizimini takomillashtirish, ekologik qonunchilik normalarining ijrosini kuchaytirish, zamonaviy monitoring texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, aholining ekologik ongini oshirish, saksovuldan foydalanishni cheklovchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish ham samarali natijalar berishi mumkin. Bundan tashqari, saksovolni tiklash va ko'paytirishga qaratilgan davlat dasturlarini kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni amaliyot bilan integratsiya qilish hamda hududiy

xususiyatlarni hisobga olgan holda boshqaruv tizimini takomillashtirish zarur. Bu choralar nafaqat mavjud resurslarni saqlab qolish, balki ularni tiklash va barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, saksovol o'simligini huquqiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirish ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda amalga oshiriladigan izchil va kompleks chora-tadbirlar Janubiy Orolbo'yi hududida ekologik vaziyatni yaxshilash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish hamda kelajak avlodlar uchun sog'lom tabiiy muhitni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Micklin P.P. The Aral Sea Disaster. Annual Review of Earth and Planetary Sciences, 2007, Vol. 35, pp. 47–72
2. Glantz M.H. Sustainable Development and the Aral Sea Basin. Cambridge University Press, 1999, pp. 112–130.
3. Raximov O.R. O'zbekiston cho'l hududlarida saksovolzorlar dinamikasi. – Toshkent: Fan, 2018, 45–52-betlar.
4. Xolmo'minov J.T.. Ekologik huquq. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020, 65–82-betlar.
5. O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonuni. 2018-yil 16-aprel, 10–20-moddalar.
6. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. 1992-yil 9-dekabr, 5–10-moddalar.
7. . Abdullayev S.A.. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2019, 112–128-betlar.
8. Yo'ldoshev Q.M.. Tabiiy resurslardan foydalanish iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2017, 73–90-betlar.
9. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi. Saksovolzorlarni tiklash va muhofaza qilish dasturi. – Toshkent, 2020, 14–28-betlar.